

QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI QURILMALARINING VA ULARDAN ISHLAB CHIQARILADIGAN ENERGIYANING DAVLAT HISOBINI YURITISH TO‘G‘RISIDA

USLUBIY QO‘LLANMA



“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2025

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining va ulardan ishlab chiqariladigan energiya davlat hisobini yuritish to'g'risida uslubiy qo'llanma. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. – ** b.

Ushbu uslubiy qo'llanma elektr energetikasi sohasida ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash, saqlash va iste'molchilarga yetkazib berish jarayonlarini samarali tashkil etish hamda xavfsiz va uzluksiz energiya ta'minotini yo'lga qo'yish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Qo'llanmaning maqsadi — elektr energetikasi tizimining ishonchliligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish hamda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan yagona metodologik asos yaratishdan iborat.

Mazkur qo'llanma elektr energetikasi obyektlarining faoliyatini tashkil etishda, xavfsizlik choralarini belgilashda va sohada amaldagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilishini ta'minlashda foydalanish uchun mo'ljallangan.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y.

**FOYDALANILGAN
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

1.	O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 2-apreldagi 134-sonli “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishda ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori	
2.	Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 19-oktabrdagi 134-sonli “Yoqilg‘i-energetika resurslari iste‘molchilarini hamda bino va inshootlarni energiya iste‘molini energiya auditidan o‘tkazish tartiblarini belgilash to‘g‘risida” gi Qarori	
3.	Vazirlar Mahkamasining 202-yil 23-iyuldagi 452-sonli “ Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining va ulardan ishlab chiqariladigan energiyaning davlat hisobini yuritish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori	



Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ularning ulushini umumiy energiya ishlab chiqarish hajmida oshirish hamda energiya xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilib, qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida huquqiy, tashkiliy va texnologik mexanizmlar izchil takomillashtirilmoqda.

Quyosh, shamol, biogaz va boshqa ekologik toza energiya manbalaridan foydalanish iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashi, aholi va tadbirkorlik subyektlarini uzluksiz energiya bilan ta'minlash, shuningdek atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirish hamda global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mazkur jarayonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish, ularning texnik holatini nazorat qilish, ishlab chiqarilgan energiya hajmini aniq qayd etish hamda ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan energiyaning davlat hisobini yuritish tizimini yanada takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu uslubiy qo'llanma qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining va ular orqali ishlab chiqariladigan energiyaning davlat hisobini yuritish tartibini belgilash, sohada yagona metodologik yondashuvni shakllantirish, hisobot va tahlil jarayonlarini soddalashtirish hamda statistik ma'lumotlarning to'liqligi va aniqligini ta'minlashga qaratilgan.



Umumiy qoidalar

Mazkur uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

- **Qayta tiklanuvchi energiya manbalari** — atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh energiyasi, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biogaz va biomassa energiyasi;
- **qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar (keyingi o'rinlarda — energiya ishlab chiqaruvchilar)** — QTEMdan energiya ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar;
- **qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchi** — QTEMning qurilmalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar;
- **qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalari** — QTEMdan energiya ishlab chiqarish, energiyani qabul qilib olish, o'zgartirish, to'plash va (yoki) uzatish, shuningdek hisobga olish bo'yicha texnologik asbob-uskunalar majmuasi, texnologik va (yoki) butlovchi asbob-uskunalar;

- **qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ishlab chiqarilgan energiyani hisoblash** — oʻzaro hisob-kitoblarni amalga oshirish va vakolatli organlarga hisobot berish uchun QTEMdan ishlab chiqarilgan energiyaning haqiqiy miqdorini tegishli zamonaviy hisoblash priborlari va hisoblagichlar koʻrsatkichlari asosida qayd qilish va hisoblash tizimi.
- **maxsus vakolatli davlat organ** — qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organ — Oʻzbekiston Respublikasi Energetika vazirligi.
- **yagona maʼlumotlar bazasi** — QTEM qurilmalarining va ulardan ishlab chiqariladigan energiyaning davlat hisobini avtomatlashtirilgan tarzda yuritish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Energetika vazirligining yagona maʼlumotlar bazasi.



Bilib oling!

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalari va ulardan ishlab chiqariladigan energiyaning davlat hisobini yuritish energiya ishlab chiqaruvchining identifikatsiya raqami va muayyan vaqt davomida QTEMdan ishlab chiqariladigan energiya toʻgʻrisidagi maʼlumotlardan iborat boʻladi.

ENERGIYA ISHLAB CHIQARUVCHILARNI VA QTEM QURILMALARINI HISOBGA OLISH TARTIBI



Energiya ishlab chiqaruvchilar identifikatsiya raqamini olish uchun maxsus vakolatli davlat organiga quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan arizani online tarzda avtomatlashtirilgan tartibda taqdim etadi:

- energiya ishlab chiqaruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar (yuridik shaxslar uchun — rekvizitlari (joylashgan manzili), jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) uchun — familiyasi, ismi, otasining ismi va yashash (pochta) manzili);
- energiya ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan QTEMning turi (quyosh, shamol, biogaz, geotermal va boshqalar);
- energiya ishlab chiqarish quvvatlarining joylashuvi va ular egallagan maydoni;

- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchisi, ishlab chiqargan davlat va ishlab chiqarilgan sanasi, energiya ishlab chiqaruvchi asosiy qurilmalarning turi va quvvati, muvofiqlik sertifikat mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek ishga tushirish sanasi.

DIQQAT!

Energiya ishlab chiqaruvchilar identifikatsiya raqamini olgach, faoliyati davomida unga oid ma'lumotlar o'zgargan taqdirda

- 30 kun ichida yagona ma'lumotlar bazasida tegishli hujjatlarni ilova qiladi;
- qo'shimcha ariza yuboradi;
- Mazkur ariza maxsus vakolatli davlat organi tomonidan 2 ish kuni ichida ko'rib chiqilib, zarur o'zgartirishlar kiritiladi.

Energiya ishlab chiqaruvchilarga identifikatsiya raqamini taqdim etish va qayta tiklanadigan energiya manbai qurilmalaridan ishlab chiqariladigan energiyaning hisobini yuritish tartibi



Energiya ishlab chiqaruvchilarga identifikatsiya raqami-yagona ma'lumotlar bazasi orqali to'liq to'ldirilgan onlayn ariza topshirilgandan so'ng, maxsus vakolatli davlat organi tomonidan **2** ish kuni ichida bepul beriladi.

Identifikatsiya raqamini olish uchun energiya ishlab chiqaruvchilar ma'lumotlarni elektron tarzda yagona ma'lumotlar bazasiga to'liq kiritadi.



Bilib oling!

Ma'lumotlar energiya ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'liq to'ldirilmaganligi identifikatsiya raqamini taqdim etmaslik uchun asos bo'lib hisoblanadi va bunday holatlarda identifikatsiya raqamini olish uchun kiritilgan ariza yagona ma'lumotlar bazasida avtomatlashtirilgan tartibda qabul qilinmaydi.

QTEMDan ishlab chiqarilgan energiyani hisobga oluvchi tegishli zamonaviy hisoblash priborlarining va hisoblagichlarning texnik ko'rsatkichlari, metrologik tavsiflari ushbu priborlar va hisoblagichlar bo'yicha qabul qilingan texnik reglamentlar hamda standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar talablariga javob berishi lozim.

Har bir energiya ishlab chiqaruvchi unga maxsus vakolatli davlat organi tomonidan taqdim etilgan identifikatsiya raqami bo'yicha har chorakda elektron tarzda QTEMDan ishlab chiqarilgan va (yoki) yetkazib berilgan energiya miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni (hisobotni) yagona ma'lumotlar bazasiga kiritib boradi.



Bilib oling!

Maxsus vakolatli davlat organining ko'rsatmasiga muvofiq, QTEMDan ishlab chiqarilgan energiyani hisobga olishning tegishli hisoblash priborlari va hisoblagichlarining ko'rsatkichlari har chorakda 1 marta "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati va "Hududgazta'minot" aksiyadorlik jamiyati tomonidan ko'rikdan o'tkazilishi mumkin.

Energiya ishlab chiqaruvchi qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalaridan foydalanishni to'xtatganda yoki ulardan

voz kechganda, yagona ma'lumotlar bazasi orqali maxsus vakolatli davlat organiga ariza yuboradi va uning identifikatsiya raqami bekor qilinadi.



NAZORAT QILISH TARTIBI

DIQQAT!

Energiya ishlab chiqaruvchilar tomonidan talablarning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Nazorat qilish davomiyligi 1 kundan ko'p bo'lmasligi va davriyligi, agar nomuvofiqliklar aniqlanmasa, 3 yilda bir martadan ko'p bo'lmasligi lozim.

Tegishli davlat organlari qayta tiklanuvchi energiya manbalari dan foydalanish sohasidagi imtiyozlar va preferensiyalarni tatbiq etishda energiya ishlab chiqaruvchilarning tegishli ma'lumotlarini Yagona ma'lumotlar bazasidan ularning identifikatsiya raqami orqali olishlari lozim.



YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Tegishli davlat organlari qayta tiklanuvchi energiya manbalari dan foydalanish sohasidagi imtiyozlar va preferensiyalarni tatbiq etishda energiya ishlab chiqaruvchilarning tegishli ma'lumotlarini Yagona ma'lumotlar bazasidan ularning identifikatsiya raqami orqali olishlari lozim.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari va ularda ishlab chiqarilgan va (yoki) yetkazib berilgan energiya miqdori to'g'risidagi taqdim etilgan ma'lumotlarning

- to'g'ri rasmiylashtirilganligiga,
- asoslilikiga
- haqqoniyligiga energiya ishlab chiqaruvchilar javobgardirlar. – qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchisi, ishlab chiqargan davlat va ishlab chiqarilgan sanasi, energiya ishlab chiqaruvchi asosiy qurilmalarning turi va quvvati, muvofiqlik sertifikatini mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek ishga tushirish sanasi.

ILOVALAR

1-ILOVA

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining va ulardan ishlab chiqariladigan energiyaning davlat hisobini yuritish SXEMASI

Bosqichlar	–	Subyektlar	–	Tadbirlar	–	Bajarish muddatlari
1-bosqich	–	Qayta tiklanuvchi energiya manba- laridan energiya ishlab chiqaruvchilar	–	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM)dan energiya ishlab chiqaruvchilar (Energiya ishlab chiqaruvchilar) identifikatsiya raqamini olish uchun arizani (tegishli to'liq ma'lumotlar bilan) online tarzda QTEM qurilmalarining va ulardan ishlab chiqariladigan energiya ning davlat hisobini avtomatlashtirilgan tarzda yuritish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining Yagona ma'lumotlar bazasiga (Yagona ma'lumotlar bazasi) kiritadi.	–	QTEM uskunalarini ilk bor o'rnatganda to'qson kun mobaynida / uskunalarga o'zgartirishlar kiritganda o'ttiz kun mobaynida

2-bosqich	Yagona ma'lumotlar bazasi	Energiya ishlab chiqaruvchilar tomonidan identifikatsiya raqamini olish uchun Yagona ma'lumotlar bazasiga online ariza to'laqonli to'ldirilgandan so'ng identifikatsiya raqami shakllantiriladi va energiya ishlab chiqaruvchiga taqdim etadi.	ikki ish kuni muddatda
3-bosqich	Energiya ishlab chiqaruvchilar	O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan taqdim etilgan identifikatsiya raqami bo'yicha har chorakda elektron tarzda QTEMdan ishlab chiqarilgan va (yoki) yetkazib berilgan energiya miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni (hisobotni) yagona ma'lumotlar bazasiga kiritib boradi.	har chorak yakuni bo'yicha keyingi oynning beshinchi sanasigacha

4-bosqich

Yagona
ma'lumotlar
bazasi

Energiya ishlab chiqaruvchilar tomonidan QTEMdan ishlab chiqarilgan va (yoki) yetkazib berilgan energiya miqdori to'g'risidagi Yagona ma'lumotlar bazasiga kiritilgan hisobotlarni tahlil qilib borish.

Doimiy
ravishda

5-bosqich

O'zenergo-
inspeksiya

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarining va ulardan ishlab chiqariladigan energiya davlat hisobini yuritish talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

har uch yilda
bir marta

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ishlab chiqarilgan
va yetkazib berilgan energiya miqdori to'g'risida
MA'LUMOT

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	_____ (identifikatsiya raqami)			
			_____yil			
			1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak
1.	Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi miqdori	kVt.soat				
2.	Yagona elektr energetika tizimiga yetkazib berilgan elektr energiyasi miqdori	kVt.soat				
3.	Lokal tarmoqqa yetkazib berilgan elektr energiyasi miqdori	kVt.soat				

4.	Ishlab chiqarilgan issiqlik energiyasi miqdori	Gkal.				
5.	Lokal tarmoqqa yetkazib berilgan issiqlik energiyasi miqdori	Gkal.				
6.	Ishlab chiqarilgan biogaz miqdori	ming m ³				
7.	Lokal tarmoqqa yetkazib berilgan biogaz miqdori	ming m ³				

Elektr energetikasi to'g'risida uslubiy qo'llanma

Kompyuterda sahifalovchi:

Jamshid G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Qog'oz bichimi 60x841/16. “Calibri” garniturası.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i *

Nashriyot hisob tabog'i **. Adadi ** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.